Tarjima tahlilida esa ingliz tilidagi evfemizmlarning tarjimada yuzaga keladigan qiyinchiliklarini tahlil qilish mumkin. Evfemizmlarni o‘rganishda tarjima tahlili nafaqat til bilimini, balki chuqur madaniyatlararo tushunchani ham talab qiladigan murakkab jarayondir. Bu jarayon tarjimonlarga ikki til o‘rtasidagi madaniy tabu va ijtimoiy normalarni solishtirish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Ingliz tilidagi evfemizmlar, odatda, to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalashdan qochadi (masalan, “died” omonatini topshirdi o‘rniga “passed away”, “depart this life”, “be no more”).

Stilistik yumshatuvchi elementlar ishlatiladi (masalan, "downsizing", asosan, idora va tashkilotlar muloqotida foydalaniladi, o‘rniga “reduction in workforce”-ish o‘rinlarini qisqartirish), poor-kambag‘al so‘zining o‘rniga financially disadvantaged – moliyaviy qiyinchilikda bo‘lmoq so‘zi qo‘llaniladi. Ba’zi evfemizmlarning ekvivalenti boshqa tillarda deyarli uchramaydi. Masalan, vafot etdi (died) so‘zini ifodalash uchun qo‘llaniladigan passed away olamdan ko‘z yumdi, vafot etdi yoki omonatini topshirdi kabi evfe-mizmning ingliz tili yoki boshqa tillarda muqobil ma'noga ega bo‘lgan so‘z mavjud bo‘lmasligi mumkin. Ijtimoiy va madaniy noziklikni saqlash, shubhasiz, qiyin. So‘zma-so‘z tarjima qilish ma’noning buzilishiga so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi aloqani yomonlashishiga sabab bo‘lishi mumkin.To‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima nutqning yumshatuvchi funksiyasini yo‘qotadi. So‘z tanlashda uning ma'nodoshlariga va qaysi uslubga doir ekanligini hisobga olish zarur.

Xulosa va takliflar. Evfemizlarning tilshunoslikdagi o‘rni nihoyatda kattadir. Ular nafaqat og‘zaki va yozma tarjimada, balki muloqotning samarali amalga oshirilishini ta’minlaydi. O‘zaro muloqotda ma’noning samarali tarzda tinglovchiga hissiy, emotsional tarzda yetib borishida evfemizlarning roli muhim o‘rin tutadi. Evfemizlarni tahlil qilishda korpus tahlilidan, tarjimashunoslikda esa taqqoslash va solishtirish usullaridan keng foydalaniladi. Xususan, Jane Austinning Emma romanida evfemizlarning nozik jihatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Allan K., Burridge K. (2006). Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language. Cambridge University Press.

(2). Crysta D. (2010). The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge University Press.

(3). Newmark P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.

(4). Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. T., 1983; Omonturdiyev A. O‘zbek nutqining evfemik asoslari. T., 2000.

Rahimova Shodiya Shuxratovna (Urganch RANCH Texnologiya universiteti “Jahon tillari” kafedrasi dotsenti vazifasini bajaruvchi),

Xojibayev Otabek Ravshanbek o‘g‘li (Urganch RANCH Texnologiya universiteti 2-kurs magistratura talabasi, Lingvistika (ingliz tili), “Jahon tillari” kafedrasi; xojibayevo@gmail.com)

“CONSCIENCE/VIJDON” KONSEPTINI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy ingliz tilida conscience/vijdon konseptining frazeologik birliklar orqali obyektivlashuvi kognitiv-semantik hamda pragmatik yondashuvlar asosida kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida tarkibida conscience leksemasi mavjud bo‘lgan frazeologik birliklar konseptning yadroviy qatlami sifatida ajratilib, ularning semantik guruhlari (“pushaymonlik va ichki iztirob”, “vijdonsizlik va axloqiy tanazzul”, “axloqiy javobgarlik va ichki nazorat”, “pok vijdon va ruhiy xotirjamlik”, “normativ axloqiy pand-nasihat” va boshqalar) tizimli ravishda tavsiflanadi. Shuningdek, mazkur birliklarning konnotativ-aksiologik xususiyatlari, ya’ni, ijobiy va salbiy baholovchanlik jihatlari hamda ularning turli nutqiy vaziyatlarda aktual ma’no hosil qilish mexanizmlari yoritiladi. Frazeologik birliklar ortida yotgan kognitiv tuzilmalar – obraz, ssenariy va “ichki hakam” frame modeli – tahlil qilinib, vijdonning til orqali qanday konseptualizatsiya qilinishi ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, vijdon konsepti ingliz tilida, ko‘pincha, jismoniy og‘riq, savdolashuv yoki poklik kabi obrazli modellar orqali ifodalanadi va kuchli aksiologik qarama-qarshiliklar tizimida namoyon bo‘ladi. Shu tariqa, CONSCIENCE konsepti til tizimida insonning ichki axloqiy nazorati, o‘z-o‘zini baholashi va ruhiy kechinmalarini ifodalovchi murakkab, ko‘p qatlamli mental tuzilma sifatida talqin qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *VIJDON konsepti, conscience, frazeologik birlik, kognitiv semantika, aksiologiya, konnotatsiya, illokutiv effekt, mental model.*

Рахимова Шодия Шухратовна (и.о. доцента, кафедра мировых языков, Урганчский Технологический университет),

Ходжибаев Отабек Равшанбек угли (Урганчский технологический университет, магистрант 2-го курса, лингвистика (английский язык), кафедра мировых языков; xojibayevo@gmail.com)

ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ, ВЫРАЖАЮЩИЕ ПОНЯТИЕ «СОВЕТА/VIJDON»

Аннотация. В данной статье проводится всесторонний анализ объективации понятия «СОВЕТА / *VIJDON» в современном английском языке посредством фразеологических единиц на основе когнитивно-семантического и прагматического подходов. В рамках исследования выделены фразеологические единицы, со-*

держащие лексему «совесть», как ядерный слой понятия, и систематически описаны их семантические группы («раскаяние и внутренняя мука», «несовестность и моральная деградация», «моральная ответственность и внутренний контроль», «чистая совесть и духовный покой», «нормативный моральный совет» и др.). Также освещены коннотативно-аксиологические свойства этих единиц, т.е. аспекты положительной и отрицательной оценочности, и механизмы их фактического смыслообразования в различных речевых ситуациях. Анализ когнитивных структур, лежащих в основе фразеологических единиц – образа, сценария и модели «внутреннего судьи» – позволяет показать, как совесть концептуализируется посредством языка. Результаты исследования показывают, что понятие совести в английском языке часто выражается через образные модели, такие как физическая боль, торг или чистота, и проявляется в системе сильных а-ксиологических противоречий. Таким образом, понятие СОВЕСТИ интерпретируется в языковой системе как сложная, многоуровневая ментальная структура, выражающая внутренний моральный контроль человека, самооценку и духовные переживания.

Ключевые слова: *понятие СОВЕСТИ, совесть, фразеологическая единица, когнитивная семантика, аксиология, коннотация, иллокутивный эффект, ментальная модель.*

Rakhimova Shodiya Shukhratovna (Acting Associate Professor, Department of World Languages, Urganch RANCH University of Technology),

Khojibayev Otabek Ravshanbek ugli (2nd-year Master's Student, Linguistics (English), Department of World Languages, Urganch RANCH University of Technology; xojibayevo@gmail.com)

PHRASEOLOGICAL UNITS EXPRESSING THE CONCEPT OF "CONSCIENCE / VIJDON"

Annotation. *This article comprehensively analyzes the objectification of the concept of CONSCIENCE/VIJDON in modern English through phraseological units based on cognitive-semantic and pragmatic approaches. Within the framework of the study, phraseological units containing the lexeme conscience are distinguished as the nuclear layer of the concept, and their semantic groups ("remorse and inner anguish", "unconscionability and moral degradation", "moral responsibility and inner control", "clear conscience and spiritual peace", "normative moral advice", etc.) are systematically described. Also, the connotative-axiological properties of these units, i.e., the aspects of positive and negative evaluability, and the mechanisms of their actual meaning formation in various speech situations are highlighted. The cognitive structures underlying phraseological units – image, scenario, and the "internal judge" frame model – are analyzed to show how conscience is conceptualized through language. The results of the study show that the concept of conscience in English is often expressed through figurative models such as physical pain, bargaining, or purity, and is manifested in a system of strong axiological contradictions. Thus, the concept of CONSCIENCE is interpreted in the language system as a complex, multi-layered mental structure that expresses a person's internal moral control, self-evaluation, and spiritual experiences.*

Keywords: *CONSCIENCE concept, conscience, phraseological unit, cognitive semantics, axiology, connotation, illocutionary effect, mental model.*

1. Kirish. Hozirgi kognitiv-lingvistik qarashlarda til birliklari, ayniqsa, frazeologizmlar, insonning borliqni idrok etish va uni ongda konseptual tizimga joylashtirish jarayonlari bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida talqin qilinadi. Til endilikda faqat aloqa vositasi emas, balki inson tafakkurining tashqi ifodasi, dunyo haqidagi bilimlarning tartibga solingan modeli sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan, frazeologik birliklar oddiy nominativ vositalardan farqli ravishda, yuqori darajadagi "ma'no zichligi"ga ega bo'lgan murakkab semantik tuzilmalar hisoblanadi. Ular tarkibida jamiyatning tarixiy tajribasi, madaniy stereotiplari, axloqiy me'yorlari hamda baholovchi munosabatlari mujassamlashgan bo'ladi. Kognitiv yondashuvga ko'ra, ma'no inson ongida tayyor shaklda mavjud bo'lmaydi, balki turli tasavvuriy mexanizmlar – metafora, metonimiya, mental obraz va ssenariylar orqali shakllanadi. Shu sababli frazeologizmlar til tizimining eng muhim kognitiv ko'rsatkichlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ular orqali abstrakt tushunchalar obrazli va hissiy jihatdan boy shaklda ifodalanadi. Ayniqsa, axloqiy va ruhiy soha bilan bog'liq konseptlar tilning aynan shu qatlamida eng faol tarzda obyektivlashadi. Mazkur maqolaning dolzarbligi ham aynan shundan kelib chiqadiki, vijdon kabi murakkab, abstrakt va aksiologik jihatdan "og'ir" konseptlar, ko'pin-,cha, frazeologik birliklar orqali eng aniq, ta'sirchan va baholovchi shaklda namoyon bo'ladi. Vijdon tushunchasi insonning ichki axloqiy nazorati, o'z harakatlariga baho berish qobiliyati va jamiyat me'yorlariga munosabatini ifodalovchi ko'p qatlamli mental tuzilma hisoblanadi. Shu bois u til orqali, ko'pincha, to'g'ridan to'g'ri leksik birliklar bilan emas, balki obrazli va ko'chma ma'noli ifodalar orqali namoyon bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan, ingliz tilida *conscience* leksemasi ishtirok etgan frazeologik birliklarni alohida guruh sifatida ajratish va ularni semantik-kognitiv tizimda tahlil qilish konsept tuzilmasini modellashtirishda muhim metodik qadam hisoblanadi. Bunday yondashuv nafaqat vijdon konseptining til orqali qanday ifodalanishini ko'rsatadi, balki uning ichki semantik tuzilmasi, obrazli asoslari va baholovchi yo'nalishlarini aniqlash imkonini ham beradi. Natijada frazeologik birliklar orqali vijdon konsepti inson ongidagi

axloqiy tasavvurlar tizimi bilan bevosita bog‘liq holda o‘rganiladi va uning lingvokognitiv mohiyati yanada chuqurroq ochib beriladi.

2. Tadqiqot materiali va metodlari. Mazkur tadqiqot materiali sifatida zamonaviy ingliz tilida **conscience** komponentiga ega bo‘lgan 26 ta frazeologik birlik tanlab olindi. Ushbu birliklar turli davr va uslubga mansub badiiy asarlardan olingan bo‘lib, ular orqali frazeologizmlarning real nutq jarayonidagi ishlatilishi kuzatildi. Misollar Stiven King, Jozef Heller, Uilyam Shekspir, Charlz Dikkens, Agata Kristi, Jeyn Osten, Artur Konan Doyl, Oskar Uayld, Enn Rays[1] kabi yozuvchilarning asarlaridan olingan bo‘lib, bu esa tadqiqot materialining janr va davr jihatidan xilma-xilligini ta’minlaydi. Bunday keng qamrovli matnlar asosida frazeologik birliklarning nafaqat lug‘aviy ma’nosi, balki ularning kontekstual va pragmatik yuklamasi ham aniqlashtirildi. Tadqiqotda qo‘llangan metodlar bir-birini to‘ldiruvchi va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan tahlil tizimini tashkil etadi. Avvalo, leksik-semantik guruhlash metodi yordamida conscience leksemali frazeologik birliklar ma’no yaqinligiga ko‘ra semantik segmentlarga ajratildi. Bu bosqich konseptning umumiy semantik maydonini ko‘rish va yadroviy hamda periferik yo‘nalishlarini aniqlash imkonini berdi. Keyingi bosqichda komponent tahlil qo‘llanildi. Ushbu metod frazeologik birlik tarkibidagi asosiy semantik belgilarning ajratilishiga xizmat qildi. Masalan, *pushaymonlik, axloqiy javobgarlik, vijdonsizlik yoki ruhiy poklik* kabi belgilarning qaysi birliklarda ustun ekanligi aniqlab borildi. Frazeologik birliklarning real nutq jarayonidagi ma’nosi ularning lug‘aviy ma’nosidan kengroq bo‘lishini inobatga olib, kontekstual-pragmatik tahlil ham amalga oshirildi. Bu bosqichda frazeologizmlarning turli nutqiy vaziyatlarda qanday baholovchi, emotsional yoki stilistik yuklama kasb etishi ko‘rsatildi. Aynan kontekst orqali frazeologik birliklarning aktual ma’nosi shakllanishi aniqlandi. Tahlilning muhim qismi sifatida kognitiv talqin usuli qo‘llanildi. Bu yondashuv frazeologik birliklar ortida yotgan mental modellarni – obraz (masalan, “vijdon sanchig‘i”), ssenariy (masalan, “vijdon bilan savdolashish”) hamda “ichki hakam” kabi konseptual freymlarni aniqlash imkonini berdi. Natijada frazeologizmlar inson ongida shakllangan axloqiy tasavvurlarni til orqali ifodalovchi vosita sifatida talqin qilindi. Metodik asos sifatida shuni nazarda tutildki, fi-gurativ va frazeologik birliklarni tahlil qilishda faqat til tizimining ichki vositalariga tayanish yetarli emas. Ularning to‘liq ma’nosini ochish uchun madaniy, ijtimoiy va psixologik bilimlar ham zarur hisoblanadi.

3. Natijalar: *conscience* leksemali birliklarning semantik guruhlari. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida *conscience* leksemasini o‘z ichiga olgan frazeologik birliklar Vijdon haqida gap ketganda, eng birinchi esga tushadigan va uning ma’nosini to‘liq beradigan iboralar hisoblanadi. Bu birliklar til tizimida yuqori ma’no zichligiga ega bo‘lib, insonning axloqiy tajribasi, ichki kechinmalari va jamiyat tomonidan shakllangan baholovchi me’yorlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Ular semantik jihatdan turli yo‘nalishlarga ega bo‘lsa-da, barchasi vijdonning inson ongidagi funksional va aksiologik qirralarini yoritishga xizmat qiladi.

Avvalo, keng tarqalgan guruhlardan biri qilgan ishidan pushaymon bo‘lish semasi bilan bog‘liq birliklardir. *Guilty conscience*, *pangs/pricks/stings of conscience*, *someone’s conscience began to prick him*, *someone’s conscience tortures him* kabi frazeologizmlar vijdonni insonning ichki azob manbai sifatida tasvirlaydi.[2] Bu yerda axloqiy iztirob, ko‘pincha, jismoniy og‘riq obrazlari orqali ifodalanadi, ya’ni “sanchiq”, “og‘riq”, “qiynoq” metaforalari yordamida tushuntiriladi. Bunday konseptualizatsiya abstrakt ruhiy holatni tanaga oid tajriba orqali anglash mexanizmlaridan biri ekanini ko‘rsatadi. Kontekstda bu birliklar, ko‘pincha, tashqi tomondan bilinmaydigan, ammo personajning ichki nutqi orqali ochiladigan ruhiy kechinmalarni ifodalaydi va o‘quvchida axloqiy ayb haqidagi tasavvurni shakllantiradi.

Ikkinchi guruh vijdonsizlik va axloqiy tanazzul bilan bog‘liq birliklarni o‘z ichiga oladi. *Without the slightest prick of conscience*, *a bargain with one’s conscience*, *someone doesn’t know what conscience is*

---

[1] Austen J. (1813). Pride and prejudice; T.Egerton. Christie, A. (1922). The secret adversary. The Bodley Head; Dickens C. (1861). Great expectations. Chapman & Hall; Doyle A.C. (1915). The valley of fear. George H. Doran Company; Heller J. (1961). Catch-22. Simon & Schuster; Ibsen H. (1879). A doll’s house. Gyldendal; Jerome J. K. (1889). Three men in a boat. J.W.Arrowsmith; King S. (1992). Dolores Claiborne. Viking; King S. (1998). Bag of bones. Scribner; Mitchell M. (1936). Gone with the wind. Macmillan; Northcote R. (1908). Devon: Its moorlands, streams and coasts. Methuen; Rice A. (1992). The tale of the body thief. Alfred A. Knopf; Rice A. (1998). Pandora. Alfred A. Knopf; Rice A. (2000). Merrick. Alfred A. Knopf; Shakespeare W. (1608/2004). Coriolanus. In J.Bate & E. Rasmussen (Eds.), The RSC Shakespeare: The complete works. Macmillan; Shakespeare W. (1598/2004). Love’s labour’s lost. In J.Bate & E.Rasmussen (Eds.), The RSC Shakespeare: The complete works. Macmillan; Shakespeare, W. (1613/2004). Henry VIII. In J.Bate & E.Rasmussen (Eds.), The RSC Shakespeare: The complete works. Macmillan; Stevenson R.L. (1886). Strange case of Dr Jekyll and Mr Hyde. Longmans, Green & Co; Wilde, O. (1890). The picture of Dorian Gray. Lippincott’s Monthly Magazine.

[2] Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. Воронеж, изд-во Воронеж. гос. ун-та, 1996, 104 с.

kabi iboralar vijdonning mavjud emasligi yoki inkor etilishini bildiradi. Bu yerda vijdon axloqiy to‘siq sifatida talqin qilinadi: agar bu to‘siq yo‘q bo‘lsa, shaxs salbiy harakatlarni ichki qarshiliksiz amalga oshiradi. Ayniqsa, *a bargain with one’s conscience* birligi obrazli ssenariy asosida qurilgan bo‘lib, unda “tamoyillarni manfaat evaziga sotish” modeli namoyon bo‘ladi. Bu birliklar kuchli salbiy baholovchi yuklamaga ega bo‘lib, shaxsning axloqiy me’yorlardan chetga chiqishini keskin tarzda ifodalaydi.

Keyingi semantik yo‘nalish o‘z harakatlari uchun mas’uliyat bilan bog‘liq. *Someone has something on his conscience*, *do something conscientiously*, *not only for fear but for conscience’s sake* kabi birliklarda vijdon shaxsning ichki nazorat mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yerda inson o‘z harakatlarini ijtimoiy va axloqiy mezonlar bilan solishtirib, o‘z-o‘zini baholaydi. Ayniqsa, “qo‘rquv” va “vijdon”ning qarama-qarshi qo‘yilishi vijdonni instinktiv his-tuyg‘ulardan ham ustun turuvchi ma’naviy omil sifatida talqin qiladi. Bu birliklar orqali vijdon inson xulq-atvorini boshqaruvchi ichki kuch sifatida ko‘rsatiladi.

Shuningdek, frazeologik birliklarning bir qismi pok vijdon va halollik semasini ifodalaydi. *Clear conscience*, *with an easy conscience*, *in all conscience* kabi iboralarda vijdon poklik, halollik va ruhiy xotirjamlik bilan bog‘lanadi. *Clear* va *easy* modifikatorlari vijdonning “tozaligi” va ichki tinchlik holatini bildiradi. Natijada *vijdon* konsepti insonning ichki uyg‘unligi, axloqiy pokligi va o‘z harakatlaridan mamnunligi bilan bog‘langan ijobiy qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Nihoyat, ayrim birliklar axloqiy pand-nasihat[1] mazmunini beradi. *One ought to know what conscience is* kabi iboralarda vijdon shaxsiy xususiyat emas, balki jamiyat tomonidan talab qilinadigan axloqiy mezon sifatida talqin qilinadi. Bu yerda normativ ma’no ustun bo‘lib, vijdon tarbiya, mas’uliyat va ideal xulq-atvor tushunchalari bilan uzviy bog‘lanadi.

Shu tariqa, *conscience* leksemali frazeologik birliklar orqali *vijdon* konsepti ingliz tilida ichki azob manbai, axloqiy to‘siq yoki uning yo‘qligi, shaxsiy javobgarlik mezoni hamda poklik va halollik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa mazkur konseptning chuqur aksiologik, obrazli va kognitiv mazmunga ega bo‘lgan ko‘p qatlamli tuzilma ekanini tasdiqlaydi.

4. Muhokama: kognitiv tuzilmalar va illokutiv effect. 4.1. Kognitiv tuzilmalar (obraz – ssenariy – frame).

Tahlil qilingan *conscience* leksemali frazeologik birliklar shuni ko‘rsatadiki, ular ortida oddiy lug‘aviy ma’no emas, balki inson tafakkurida shakllangan murakkab mental modellar yotadi. Bu modellar, asosan, uch turdagi kognitiv tuzilma orqali namoyon bo‘ladi: obraz, ssenariy va frame (rol modeli).

Birinchi navbatda, obrazli konseptualizatsiya alohida e’tiborni tortadi. *Pricks of conscience*, *pangs of conscience*, *stings of conscience* kabi birliklarda vijdon insonni “sanchiydigan” yoki “og‘ritadigan” kuch sifatida tasvirlanadi. Bu yerda axloqiy iztirob bevosita jismoniy og‘riq bilan qiyoslanadi. Bunday metaforik o‘xshatish inson uchun tanish bo‘lgan tanaviy tajriba orqali murakkab ruhiy kechinmalarni tushuntirishga xizmat qiladi. Masalan, *his conscience began to prick him*[2] jumlasida shaxsning ichki noqulayligi go‘yoki tanadagi og‘riqdek seziladigan holat sifatida beriladi. Bu obraz vijdonni shunchaki abstrakt axloqiy tushuncha emas, balki real, seziladigan ichki kuch sifatida qabul qilishga yordam beradi.

Ikkinchi tur – ssenariy asosidagi tuzilma. Bunda vijdon insonning ichki qaror qabul qilish jarayoniga bog‘langan harakatlar ketma-ketligi orqali talqin qilinadi. *A bargain with one’s conscience* iborasi bunga yorqin misol bo‘la oladi. Bu birlikda insonning axloqiy tamoyillari bilan shaxsiy manfaatlari o‘rtasidagi ichki kurash “savdolashish” ssenariysi orqali beriladi. Go‘yo inson o‘z vijdoni bilan bitim tuzadi, uni aldab o‘tadi yoki vaqtincha chetga suradi. Bu ssenariy axloqiy tanlov jarayonini juda hayotiy va tushunarli qilib ko‘rsatadi: vijdon inson uchun ichki muzokara maydoniga aylanadi.

Uchinchi muhim tuzilma – frame yoki rol modeli. Ko‘plab frazeologik birliklarda vijdon “ichki hakam”, “ichki sudya” yoki “ichki jazolovchi” sifatida namoyon bo‘ladi. *Someone has something on his conscience* iborasida vijdon shaxsning xatti-harakatlarini baholab turuvchi ichki nazorat mexanizmi sifatida tasvirlanadi. Xuddi shunday, *guilty conscience* yoki *conscience tortures him* birliklarida vijdon go‘yoki inson ustidan hukm chiqaruvchi va uni ruhiy jihatdan jazolovchi kuchga aylanadi. Bu model vijdonni axloqiy baholash va o‘z-o‘zini nazorat qilish jarayonining markaziy elementi sifatida ko‘rsatadi. Shu tariqa, obraz, ssenariy va frame tipidagi tuzilmalar vijdon konseptining til orqali qanday “jonlantirilishini” ko‘rsatadi. Ular yordamida abstrakt axloqiy tushuncha inson uchun ko‘rinadigan, seziladigan va tushunarli bo‘lgan shaklga keltiriladi.

---

[1] Dobrovolskij D., Piirainen E., Figurative language: Cross-cultural and cross-linguistic perspectives (2nd ed.). De Gruyter Mouton, 2022.

[2] Baum L.F., The Marvelous Land of Oz, Сибирское университетское издательство, 2007, p. 208; Bierce A., Epigrams, on with the Dance; Nibble Tales, GORDIAN PRESS, 1966, p. 270. Butler S. Way of All Flesh, Ладомир, Наука, 2009, p. 464; Buchan J. The Thirty-nine Steps, Wordsworth Editions Limited, 1996, p. 112; Carter D., Tomorrow Is with Us [Electronic resource]. D.Carter. Режим доступа: http://www.rosinstrument.com, свободный.

4.2. Illokutiv effekt omillari (frazeologik birliklarning nutqda tinglovchi yoki o‘quvchiga ko‘rsatadigan ruhiy va baholovchi ta’sirini kuchaytiruvchi omillar). Frazeologik birliklarning nutqda kuchli ta’sir ko‘rsatishi, ya’ni, ular tinglovchi yoki o‘quvchiga qanday ruhiy va ma’naviy ta’sir qilishi, bir nechta o‘zaro bog‘liq omillar orqali yuzaga keladi.

Birinchidan, obraz-asos muhim rol o‘ynaydi. “Og‘riq”, “savdo”, “poklik” kabi metaforik asoslar vijdon bilan bog‘liq iboralarga kuchli hissiy rang beradi. Masalan, *clear conscience* iborasi nafaqat aybsizlikni, balki ichki yengillik va ruhiy tinchlikni ham anglatadi. Obraz qanchalik jonli bo‘lsa, frazeologik birlikning ta’siri shunchalik kuchli bo‘ladi.

Ikkinchidan, kontekst hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bir xil ibora turli matnlarda turlicha illokutiv vazifa bajarishi mumkin. Masalan, *guilty conscience* iborasi bir kontekstda personajga nisbatan achinish uyg‘otsa, boshqa vaziyatda uni fosh etish yoki tanqid qilish vositasiga aylanadi. Muallifning munosabati, syujet vaziyati va personajning roli frazeologik birlikning pragmatik yuklamasini belgilaydi.

Uchinchidan, aksiologik baho (ya’ni, ijobiy yoki salbiy qadriyatga asoslangan baholash) muhim ahamiyatga ega. *Clear, easy, slightest* kabi modifikatorlar bahoni kuchaytiradi yoki keskinlashtiradi. Masalan, *without the slightest prick of conscience* iborasida *slightest* so‘zi vijdonsizlik darajasini maksimal darajada oshirib, salbiy bahoni kuchaytiradi.

To‘rtinchidan, stilistik vositalar frazeologik birliklarning ta’sirini oshiradi. Qarama-qarshilik, kinoya, mubolag‘a kabi usullar orqali muallif vijdon bilan bog‘liq obrazni yanada ta’sirchan qiladi. Shunday qilib, bunday birliklarni to‘liq talqin qilish uchun faqat lug‘aviy ma’noga tayanish yetarli emas, nutq vaziyati, madaniy fon va ekstralingvistik bilimlar ham muhim rol o‘ynaydi.

5. Xulosa. Tarkibida *conscience* leksemasi mavjud frazeologik birliklar ingliz tilida vijdon tushunchasini eng aniq va markaziy shaklda ifodalaydi. Ular orqali vijdon turli jihatlarda namoyon bo‘ladi: bir tomondan, u ichki azob va pushaymonlik manbai sifatida tasvirlanadi, boshqa tomondan, vijdonsizlik va axloqiy tanazzul belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, vijdon shaxsning ichki nazorati va mas’uliyat mezoni sifatida ham, poklik va ruhiy xotirjamlik ramzi sifatida ham talqin qilinadi. Ayrim birliklarda esa u jamiyat tomonidan talab qilinadigan axloqiy mezon sifatida ko‘rsatiladi. Natijada ingliz tilidagi *conscience* leksemali frazeologizmlar vijdon konseptini ko‘p qatlamli – tushunchaviy, obrazli va baholovchi – tuzilma sifatida ochib beradi. Ular vijdonni inson ichidagi “ichki hakam”, “nazorat qiluvchi” va “jazolovchi” kuch sifatida konseptualizatsiya qilishga xizmat qiladi hamda ijobiy va salbiy qadriyatlar o‘rtasidagi ichki kurashni til vositasida yaqqol ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Алексеев П.В. Философия. Учебник, Алексеев, А.В.Панин. М., ТК Велби, изд-во “Проспект”, 2003, 608 с.

(2). Алефиренко Н.Ф. Современные проблемы науки о языке. Учебное пособие, М., “Флинта: Наука”, 2005, 416 с.

(3). Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. Воронеж, изд-во Воронеж. гос. ун-та, 1996, 104 с.

(4). Dobrovolskij D., Piirainen E. Figurative language: Cross-cultural and cross-linguistic perspectives (2nd ed.). De Gruyter Mouton, 2022.

(6). Lakoff G. Women, fire, and dangerous things. What categories reveal about the mind. University of Chicago Press, 1987.

(7). Barker C. Books of Blood. “Эксмо, Домино”, 2008, p. 432.

(8). Baum L.F. The Marvelous Land of Oz, Сибирское университетское издательство, 2007, p. 208.

(9). Bierce A. Epigrams, on with the Dance; Nibble Tales. GORDIAN PRESS, 1966, p. 270.

(10). Butler S. Way of All Flesh. Ладомир. “Наука”, 2009, p. 464.

(11). Buchan J. The Thirty-nine Steps, Wordsworth Editions Limited, 1996, p. 112.

(12). Carter D. Tomorrow is with Us [Electronic resource]. Режим доступа: http://www.rosinstrument.com, свободный.

Jovbo‘riyeva Umidabonu Tohirovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Filologiya va san’at fakulteti 231-amaliy filologiya guruhi talabasi; E-mail: ujovboriyeva@gmail.com)

SURXON VOHASI SHOIRLARINING “VATAN” KONSEPTLI SHE’RLARIDA TOPONIMLAR LINGVOPOETIKASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada she’riyatda “Vatan” konseptli toponimlar lingvopoetikasi onomastik tahlil metodlari yordamida Surxon vohasining o‘zbek she’riyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan shoirlaridan Usmon A’zim, Sirojiddin Sayyid, Eshqobil Shukur kabi mahoratli shoirlarining Vatanni madh etuvchi she’rlari asosida tahlil qilinadi.*